




W HALTIMA

BO'YIN VA YELKA UCHUN MASSAJER



**Model:
RABI**

EAC

FOYDALANUVCHI UCHUN QO'LLANMA

Siz ushbu mahsulotni xarid qilganingiz uchun rahmat.
Iltimos, qurilmani ishlashidan oldin foydalanuvchi qo'llanmasini diqqat bilan o'qing, to'g'ri o'rnatish va ishlashiga ishonch hosil qilish uchun.
Kelgusidagi foydalanishlar uchun ham ushbu foydalanuvchi qo'llanmasidan foydalaning.

MAZMUN (MUNDARIJA)

• EHTIYOT CHORALARI	1
• NOMLASH VA MO'LJAL	
• KOMPONENT QISMLARI RO'YXATI	4
• FOYDALANISH BO'YICHA QO'LLANMA	4
◦ Dastlabki tekshiruvlar	4
◦ Quvvatlash usullari	4
◦ Qurilmani ishlash	4
◦ Foydalanishdan keyin	4
• QURILMAGA G'AMXO'RLIK VA SAQLASH	5
• NOSOZLIKLARNI BARTARAF ETISH	7
• TEXNIK XUSUSIYATLAR	7

EHTIYOT CHORALARI

- Iltimos, qurilmani ishlatishdan oldin ushbu yo'riqnomani diqqat bilan o'qing.
- Quyida keltirilgan ehtiyot choralar va ogohlantirishlar — ushbu qurilmaning to'g'ri ishlashini ta'minlashga yordam beradi.
- "OGOHANTIRISH" va "EHTIYOT" ustunlarida noto'g'ri foydalanish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar keltirilgan. Ushbu ustunlarni diqqat bilan o'qing va yo'riqnomadagi ko'rsatmalarga amal qiling.

 OGOHLANTIRISH	Noto'g'ri foydalanish foydalanuvchining jiddiy jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.
 EHTIYOT	Noto'g'ri foydalanish foydalanuvchining jarohatlanishiga yoki qurilmaning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

	Ta'qiqlangan		Yechishga urinmang
---	--------------	---	--------------------

Quyidagi toifalarga mansub shaxslar uchun mos emas

Quyida ko'rsatilgan holatlardagi foydalanuvchilarga qurilmani ishlatishdan oldin shifokor bilan maslahatlashish tavsiya etiladi.

 OGOHLA-NTIRISH	<ul style="list-style-type: none">Yurak stimulyatori yoki boshqa elektron implantlar o'rnatilgan shaxslarga.Sog'lig'i yomonlashayotgan yoki og'ir davolanish jarayonida bo'lgan odamlarga.Yomon sifatli o'smalari, yurak, gipertoniya, gipotoniyaga oid kasallikkleri bor bemorlarga (bunda shifokor kuzatuvi zarur).Dori vositalarini qabul qilayotgan shaxslar, homilador ayollar yoki hayz davridagi ayollar.Osteoporoz, bo'g'im deformatsiyasi, disfunktsiya yoki yaqinda suyak singan odamlarga.Og'ir jarohat yoki teri kasallikkleri bilan og'rigan odamlarga.Yuqori tana haroratida.Bolalar, nogironlar yoki harakat cheklovi bor shaxslar qurilmadan faqat nazorat ostida foydalanishi kerak.Yuqumli kasallikkarga yoki elektron implantlarga ega bemorlarga.Og'ir teri kasallikkleri yoki jiddiy jarohati bor odamlarga bu qurilmadan foydalanish tavsiya etilmaydi.Qurilma isitish funksiyasi bilan jihozlangan. Sensor sezuvchanligi past bo'lgan foydalanuvchilar bu holatga e'tibor qaratishlari kerak (kuzatuv talab etiladi).
---	--

Kontroller bilan ishlashdagi ehtiyot choralar

 EHTIYOT	<ul style="list-style-type: none">Kontroller bilan ho'l qo'l bilan ishlamang va simni kuch bilan tortmang.Suv yoki boshqa suyuqlikni kontrollerga to'kmang – bu nosozlikka olib kelishi mumkin.Kontroller ustiga og'ir buyumlarni qo'y mang.
--	--

EHTIYOT CHORALARI

Qurilmadan samarali foydalanish uchun

 OGOHLA-NTIRISH	<ul style="list-style-type: none">Qurilmani 40 °C dan yuqori haroratda ishlatmang.Qurilmani nam, ho'l yoki changli joylarda ishlatmang.Momaqaldoq yoki chaqmoq vaqtida qurilmani elektr tarmog'iga ulamang yoki uzmang.Qurilmani tashqarida (ko'chada) qoldirmang.Qurilmani har doim tekis yuzaga qo'ying.Qurilmani issiqlik manbalari, ochiq olov yoki bevosita quyosh nuri yaqinida saqlamang.Qurilmani suvgan solmang yoki yuvmang.Qurilmani qisqa to'lqinli yoki mikroto'lqinli qurilmalar yaqinida ishlatmang.
--	--

Elektr ulagichlar va quvvat simi. Ehtiyot choralari

 OGOHLA-NTIRISH	<ul style="list-style-type: none">Qurilmaning pasportida ko'rsatilgan kuchlanish sizning mahalliy elektr manbaingizga mos ekanligiga ishonch hosil qiling.Quvvat simini ajratishda qurilmani ho'l qo'l bilan ushlamang — bu elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.Simni tortmang — ajratishda har doim sensorning plastik uchidan ushlab eching.Quvvat simini boshqa maishiy texnika yoki og'ir buyumlar bilan bosib qo'y mang.Quvvat simini shikastlamang, bukmang, haddan tashqari tortmang yoki buramang.Faqat mos adapterdan foydalaning. Agar kerak bo'lsa, yetkazib beruvchi yoki malakali mutaxassisga murojaat qiling.Agar quvvat simi shikastlangan bo'lsa, uni faqat ishlab chiqaruvchi, rasmiy xizmat ko'rsatish markazi yoki vakolatli mutaxassis almashtirishi kerak — xavfni oldini olish uchun.
--	---

Qurilmadan xavfsiz foydalanish bo'yicha tavsiyalar

 OGOHLA-NTIRISH	<ul style="list-style-type: none">Qurilma ustiga og'ir buyumlarni qo'y mang.Qurilma bilan birga boshqa davolash vositalarini ishlatmang.Qurilma ustiga og'ir buyumlarni hech qachon qo'y mang.Qurilmadan faqat ushbu qo'llanmada ko'rsatilgan maqsadlarda foydalaning.Qurilmani faqat bitta foydalanuvchi ishlatishi kerak. Ikki yoki undan ortiq odam birgalikda foydalanmasligi kerak — bu qurilmaning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.Qurilmani ovqatdan so'ng darhol ishlatmang — bu noqulaylik tug'dirishi mumkin.Agar qurilmadan foydalanish vaqtida engil noqulaylik yuzaga kelsa — darhol foydalanishni to'xtating.Qurilmadan kamida 10 daqiqa davomida foydalanish tavsiya etiladi.Qurilmani avtomobil boshqarayotgan vaqtida ishlatmang — bu avariya sabab bo'lishi mumkin.Uzoq muddatli ishlashdan so'ng qurilma qizishi mumkin.Agar quvvat yetkazib berish zaryad paytida to'satdan uzilsa — uni darhol o'chirib qo'ying, qayta yoqish vaqtida xavf tug'ilishi mumkin.Massajga xalaqit berishi mumkin bo'lgan barcha zargarlik buyumlari va boshqa narsalarni ishlatishdan oldin yechib qo'ying.Qurilmadan yotgan holatda yoki yonboshlab yotib foydalanmang.
 TAQIQ-LANADI	<ul style="list-style-type: none">Agar qurilma shikastlangan, ochiq qismlarga yoki kuchlanish oqishiga ega bo'lsa — foydalanmang.Qurilma ustiga chiqmang va ustiga og'ir buyumlar qo'y mang.Qurilmani bolalarga bermang.Qurilma ishlayotgan paytda uxbol qolmang.Spirtli ichimlik ichganiningizdan so'ng qurilmadan foydalanmang.Qurilmaning teshiklariga barmoqlar yoki begona buyumlarni kiritmang — bu foydalanuvchining jarohatlanishiga yoki qurilmaning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.Qurilma ishlayotgan vaqtida tutun chiqishi yoki g'alati hid sezilsa — darhol foydalanishni to'xtating.

EHTIYOT CHORALARI

	<p>AJRATMANG</p> <ul style="list-style-type: none">Qurilmani mustaqil ravishda ochishga harakat qilmang — bu uni ishdan chiqarishi mumkin.Ruxsatsiz qurilmani ta'mirlashga yoki ajratishga urinmang. Iltimos, biz bilan yoki ruxsat etilgan xizmat markazi bilan bog'laning.
	<p>QUVVAT SIMINI UZING</p> <ul style="list-style-type: none">Texnik xizmat ko'rsatishdan oldin quvvat simini uzatma vilkasidan chiqarib oling.Hech qachon simni ho'l qo'l bilan ushlab ulanmasin yoki uzilmasin — bu elektr toki urishi yoki jarohatlanishga olib kelishi mumkin.To'liq zaryadlangach quvvat simini uzatmadan chiqarib oling.Quvvat o'chirilganidan so'ng simni rozetkadan chiqarib oling va boshqaruv elementlarini o'chiring.

Xavfsiz foydalanish bo'yicha tavsiyalar

	<p>OGOHLA-NTIRISH</p> <ul style="list-style-type: none">Qurilmadan faqat tanuning maxsus ajratilgan sohalarida foydalaning.Yurak sohasiga bosmang — bu noqlay his-tuyg'ularni keltirib chiqarishi mumkin.Qurilmadan uzoq vaqt foydalanmang — bu noxush sezgilarni chaqiradi.Plastik qadoqlarni to'g'ri yo'q qiling va bolalardan uzoqroqda saqlang.Qurilmani ishlatalishda uni gilam yoki yostiq bilan yopmang — bu qizib ketish yoki yonishga sabab bo'lishi mumkin.Qurilmadan ho'l yoki nam teriga qo'llamang.
---	--

Akkumulyatordan foydalanish bo'yicha qo'llanma

	<p>OGOHLA-NTIRISH</p> <ul style="list-style-type: none">Qurilma maxsus akkumulyator bilan jihozlangan. Uni zaryadlash uchun qurilmadan chiqarib olmang va boshqa qurilmalarda ishlatalang.Qurilmani ochiq olov yaqinida qoldirmang — bu qizib ketish xavfini tug'diradi.Qurilmadan foydalanishda iltimos, ko'rsatmalarga rioya qiling — bu nosozliklarning oldini oladi.Akkumulyatorning ikki kontaktini metall buyumlar bilan to'g'ridan-to'g'ri ulamang.Qurilmani zargarlik buyumlari yoki soch qisqichlari bilan birga saqlamang.Olib tashlangan akkumulyatori bolalar yetolmaydigan joyga darhol olib qo'ying — bu jarohatlarning oldini oladi.Agar bola akkumulyatorni yutib yuborgan bo'lsa — darhol shifokorga murojaat qiling.Agar akkumulyatoridan suyuqlik chiqsa — teri bilan aloqadan saqlaning, bu kimyoiy kuyishga olib kelishi mumkin.Shikastlangan akkumulyator bilan aloqa bo'lsa, terini darhol suv bilan yuving.Teri bilan aloqada bo'lgan joylarni yaxshilab yuving va darhol shifokorga murojaat qiling.Qurilmani faqat utilizatsiya qilish uchun ajrating — rasmiy dilerga yoki servis markaziga murojaat qiling.Akkumulyatorlar foydalanilgandan so'ng yo'q qilinishi mumkin. Iltimos, litiyli akkumulyatorlarni mahalliy dasturlar orqali topshiring.Qurilmani utilizatsiya qilishdan oldin, ichidagi akkumulyatori chiqarib oling.Akkumulyatori chiqarishdan oldin quvvat manbaini uzing.Akkumulyatorlarni belgilangan tartibda utilizatsiya qiling.
---	--

Akkumulyatorni utilizatsiya qilish

Qurilmani utilizatsiya qilishdan oldin, ichidagi akkumulyatori chiqarib oling.

Quyidagi harakatlarni bajaring:

	<p>OGOHLA-NTIRISH</p> <ul style="list-style-type: none">Tashqi quvvat manbaini uzing, qurilma korpusini yeching va akkumulyatori ajrating.
---	---

EHTIYOT CHORALARI




OGOHLA-
NTIRISH

- Akkumulyatorni olib tashlang.
- Akkumulyatorni qayta ishlash uchun maxsus ajratilgan punktlarda utilizatsiya qiling.
- Iltimos, atrof-muhitni muhofaza qilishga oid mahalliy qonunlar va chiqindilarni utilizatsiya qilish qoidalariga rioya qiling.

QURILMA TARKIBI VA QISMLARNING MAQSADI

Qurilma tarkibi:




FOYDALANISH BO'YICHA QO'LLANMA

Ishlatishdan oldingi tekshiruvlar

- Qurilmani ishlatishdan oldin uning shikastlanmaganiga ishonch hosil qiling.
- Barcha qismlar o'z joyida ekanini tekshiring.


Zaryadlash usullari

- Zaryadlovchi kabel vilkasini qurilmaning zaryadlash portiga ulang (rasmga qarang).
- Agar akkumulyatorning zaryadi 20% dan past bo'lsa, indikator doimiy ravishda qizil rangda yonadi.
- Zaryadlash tugagach, indikator oq rangda yonadi.
- Qurilma ishlayotganda indikator doimiy oq rangda yonadi. Zaryadlash paytida esa qizil chiroq chaqnaydi.
- Zaryadlash jarayonida qurilma va quvvat adapteri biroz qizishi mumkin.
- Qurilmani zaryad olayotgan paytda ishlatish mumkin emas.
- Agar qurilma ish holatida bo'lsa va zaryadlash manbaiga ulangan bo'lsa, u avtomatik himoya dasturini ishga tushiradi va avtomatik ravishda ishlashni to'xtatadi.



FOYDALANISH BO'YICHA QO'LLANMA

Foydalanish bo'yicha qo'llanma



Boshqaruv tugmasi

Quvvat tugmasi

Rejim tugmasi

Isitish tugmasi

Intensivlikni sozlash tugmasi

• Quvvat tugmasi:

Massajini boshlash uchun tugmani bosing va 2 soniya davomida bosib turing. Standart ish vaqtiga 10 daqiqa. Agar qurilma yoqilgan bo'lsa, uni o'chirish uchun ushbu tugmani yana 2 soniya bosib turing.

• Rejim tugmasi:

Ish rejimida, bu tugmani bosish orqali 1 va 2-rejimlar o'rtaida almashish mumkin.

• Isitish tugmasi:

Ish rejimida bu tugmani ketma-ket bosish orqali isitish rejimlarini o'zgartirasisiz: yumshoq isitish → o'chirish → kuchli isitish (tsiklik tartibda).

• Intensivlikni sozlash tugmasi:

Ish holatida bu tugmani bosish orqali intensivlik darajasini 1 va 2 o'rtaida almashtirishingiz mumkin.

Foydalanishdan so'ng

- Qurilma ishlatilmayotgan paytda, uni to'liq o'chirish uchun quvvat tugmasini bosib ushlab turing va qurilmani shikastlanishdan saqlash uchun xavfsiz joyda saqlang.
- Barcha qismlar uzilganligiga ishonch hosil qiling.
- Agar qurilmadan uzoq vaqt foydalanilmasa, uni g'ilofga solib qo'ying.



EHTIYOT BO'LING

- Kontroller bilan ho'l qo'llar bilan ishlamang — bu elektr toki urishi yoki qurilmaning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.
- Suv yoki boshqa suyuqliklar kontroller ichiga tushmasligiga ishonch hosil qiling — bu nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Qurilmadan foydalanilmayotgan bo'lsa, elektr rozetkasidan uzib qo'ying, shunda bolalar uni tasodifan yoqib yubormaydi.

QURILMAGA G'AMXO'RLIK VA SAQLASH

Parvarish bo'yicha tavsiyalar

1. Tozalash

- Qurilmani tozalashdan oldin uni albatta o'chiring va quvvat simini elektr rozetkasidan uzing.
- Qurilmani tozalash uchun yumshoq matodan foydalaning.
- Dog'larni tozalash uchun dog' yuzasini suv yoki yumshoq neytral yuvish vositasi bilan namlangan mato bilan artib oling, so'ngra boshqa quruq mato bilan artib quriting.

QURILMAGA G'AMXO'RLIK VA SAQLASH



EHTIYOT BO'LING

- Qurilmani elektrga ulash yoki quvvat simini chiqarishda ho'l qo'llardan foydalanish qattiq taqiqlanadi.
- Qurilmani suv bilan yuvmang va unga suv yoki boshqa suyuqliklar tushishiga yo'l qo'y mang.
- Benzin, erituvchilar yoki boshqa kimyoviy moddalarni ishlatmang — bu qurilmaning rangsizlanishi yoki shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Qurilmani mustaqil ravishda qismlarga ajratmang. Agar u ho'l bo'lsa, avval to'liq quritib oling.

2. Saqlash usullari

- Qurilmani saqlashdan oldin quvvat manbaidan uzing.
- Qurilmani namlik, yuqori harorat va uchuvchi gazlardan holi joyda saqlang.
- Agar qurilmadan uzoq vaqt foydalanilmasa, uni changdan himoya qilish uchun qutiga joylashtirish tavsiya etiladi.
- Akkumulyatorni vaqtiga bilan zaryadlab turing — bu xizmat muddatini uzaytiradi.



EHTIYOT BO'LING

- Qurilmani uzoq vaqt davomida bevosita quyosh nuri ostida qoldirmang. Bu uning rangi o'chishiga yoki shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Isitish paytida

Qurilmadan kundalik foydalanishda quyidagi holatlarning yo'qligiga ishonch hosil qiling:

- Yoqilgan hid (kuvish hidi)
- Quvvat simiga tegilganda elektr ta'minoti o'z-o'zidan yoqilib/o'chib qolishi
- Zaryadlovchi simning qizib ketishi yoki shikastlanishi
- Boshqa har qanday g'ayrioddiy belgilar



EHTIYOT BO'LING

- Yuqoridagi belgilar mavjud bo'lsa, qurilmadan foydalanishni darhol to'xtating — bu nosozlik yoki baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin.
- Qurilmani o'chiring, rozetkadan uzing va bizga yoki xizmat markaziga murojaat qiling.
- Yuqorida aytib o'tilgan xizmat va texnik parvarishdan tashqari barcha ishlovlari faqat vakolatli mutaxassis yoki servis markazi tomonidan bajarilishi kerak.
- Qurilmani mustaqil ravishda qismlarga ajratmang — bu uning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin

NOSOZLIKLARNI BARTARAF ETISH

Nº	Belgilar	Ehtimoliy sabablari	Ehtimoliy yechimlar
1	Ish vaqtida shovqin	Bu normal holat, mexanik qismlarning harakati tufayli yuzaga keladi	Hech qanday choralar ko'rish shart emas
		Ichki qismlar mahkamlanmagan	Ruxsat etilgan xizmat markaziga murojaat qiling
2	Qurilma ishga tushmayapti	Quvvat tugmasi "o'chirilgan" holatda	Quvvat tugmasini yoqing
		Qurilma ortiqcha yuklangan, qizib ketishga qarshi himoya elektrni o'chirgan	Soviganidan so'ng qayta yoqing
		Akkumulyator o'chgan	To'liq zaryaddan keyin foydalaning
3	Qurilma ishlash vaqtida to'xtab qoladi	Taymer standart holatda o'chirilgan	15 daqiqadan so'ng quvvat tugmasini bosing, qayta ishga tushadi
		Elektr uzilgan	Akkumulyatorni zaryadlab, qurilmani qayta ishga tushiring
4	Ish paytida tutun yoki g'alati hid keladi	Qurilma nosoz	Darhol foydalanishni to'xtating va ruxsat etilgan xizmat markaziga murojaat qiling
5	Zaryadlash belgisi yo'q	Belgilar yo'q	Zaryadlovchi kabelni ulang

Agar muammo bartaraf etilmasa, biz bilan yoki ruxsat etilgan xizmat markazi bilan bog'laning.

Maslahat: Qurilmani mustaqil ravishda ta'mirlashga urinmang — kompaniyamiz ruxsat etilmagan xizmat ko'rsatish natijasida yuzaga kelgan shikastlanish yoki jarohatlar uchun javobgar emas.

TEXNIK XUSUSIYATLAR

- Mahsulot nomi: Bo'yin va yelka uchun massajer
- Model: Rabi
- Nominal kuchlanish: 5 V
- Nominal quvvat: 9 Vt
- Akkumulyator sig'imi: 2500 mA·soat
- Ishlab chiqaruvchi: Shanghai Airongda Fitness Technology Co., Ltd
- Manzil: 1226 Zhufeng Road, Qingpu tumani, Shanxay, Xitoy

Ushbu yo'riqnomani tashlab yubormang.

Mahsulotning tashqi ko'rinishi rasmga to'g'ri kelmasligi mumkin.

Ushbu yo'riqnomada sinchiklab tahrirlangan va tekshirilgan, biroq tuzish va chop etish vaqtida xatolarning mavjud bo'lish ehtimoli istisno qilinmaydi.

Noqulayliklar uchun oldindan uzr so'raymiz. Yakuniy talqin qilish huquqi Kompaniyaga tegishli.

Ushbu yo'riqnomada ishlab chiqaruvchi tomonidan berilgan ma'lumotning so'zma-so'z tarjimasidir.

❸ Chiqindilarni noto'g'ri utilizatsiya qilish atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin.



W H A L T I M A